



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-mart



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart)

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – 63,2%**



**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi -
1 861,6
ming so'm**




**Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi – 63,8%**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-aprel holatiga ko'ra)




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-mart)

48,4%




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


56,9% (1- aprel holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-mart)

46,9%




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-mart)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-mart)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart)

Hududlar nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati¹⁾	2 812,7	100,0	111,1
Jizzax sh.	1 231,9	43,8	112,1
tumanlar:			
Arnasoy	45,6	1,6	107,3
Baxmal	177,3	6,3	103,0
G'allaorol	230,1	8,2	114,5
Sharof Rashidov	373,9	13,3	115,0
Do'stlik	85,5	3,0	104,1
Zomin	211,9	7,5	110,5
Zarbdor	100,2	3,6	108,4
Zafarobod	48,8	1,7	109,4
Mirzacho'l	72,1	2,6	107,3
Paxtakor	88,9	3,2	109,8
Forish	124,2	4,4	110,2
Yangiobod	22,3	0,8	110,4


¹ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-mart)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-mart)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-mart)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **63,2** foizni, shu jumladan, **25,9** foizni kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-mart)




Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	2 812,7	100,0	111,1
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	117,5	4,2	112,3
Moliyaviy xizmatlar	692,5	24,6	106,5
Transport xizmatlari	417,9	14,9	115,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	403,3	14,3	112,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	100,7	3,6	107,1
Savdo xizmatlari	891,9	31,7	111,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	45,8	1,6	106,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	122,3	4,3	135,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	44,0	1,6	108,6
Ijara xizmatlari	45,5	1,6	115,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	67,3	2,4	106,4
Shaxsiy xizmatlar	78,1	2,8	106,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	34,9	1,2	116,1
Boshqa xizmatlar	154,3	5,5	109,0

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-mart)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-mart, mlrd so'mda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-mart)

Yordamchi moliyaviy faoliyat



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-martida 93,9** foizni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **65,6** foizni yoki **453,6** mlrd so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar-mart** oylariga nisbatan Jizzax shahrida yuqori o'sish sur'ati **109,1** foizni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **96,5** foiz.

Sharof Rashidov tumanida transport xizmatlari hajmi **158,0** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **119,5** foizni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-mart)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-mart)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ⚙️ O'sishi

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-mart) ¹⁾

2024- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **403,3** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **14,3** foizni tashkil etdi.



Sharof Rashidov

154,4

+16,2%

Jizzax shahri

67,8

+10,8%

Baxmal

34,9

+9,8%

Zomin

34,4

+10,1%

G'allaorol

30,0

+10,8%

Forish

27,7

+9,5%

Zarbdor

14,9

+8,3%

Do'stlik

11,5

+10,4%

Paxtakor

10,7

+9,6%

Mirzacho'l

7,7

+9,4%

Zafarobod

3,4

+7,1%

Yangiobod

3,0

+7,6%

Arnasoy

2,9

+8,2%

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)



Transport xizmatlari umumiy hajmida Sharof Rashidov tumaning ulushi **38,3** foizni yoki **154,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan Sharof Rashidov tumanida **116,2** foiz yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.


Hajmi, mlrd so'mda ● O'sishi

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾


(yanvar-mart)

2024- yil yanvar-mart oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **69,7** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-mart)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-mart)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-mart** oylaridagi ulushi **96,3%**ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

◆ O'sishi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-mart)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-mart** oylaridagi ulushi **76,3** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-mart, mlrd so'mda)

Jizzax shahri	105,2
Sharof Rashidov	4,2
Zomin	3,3
Baxmal	1,8
Paxtakor	1,7
G'allaorol	1,6
Do'stlik	1,5
Zafarobod	0,8
Zarbdor	0,6
Arnasoy	0,5
Forish	0,5
Mirzacho'l	0,4
Yangiobod	0,2

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart)

2024- yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **61,7** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi
Jizzax shahri	27,8	+6,7%
Zomin	8,2	+15,0%
Sharof Rashidov	1,8	+6,7%
G'allaorol	1,6	+19,3%
Baxmal	1,5	+6,2%
Mirzacho'l	0,9	+7,3%
Yangiobod	0,6	+6,0%
Paxtakor	0,4	+6,6%
Forish	0,4	+11,7%
Do'stlik	0,3	+6,9%
Arnasoy	0,2	+10,8%
Zarbdor	0,1	+7,9%
Zafarobod	0,1	+7,2%


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-mart)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **96,3** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-mart)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda


○ O'sishi

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-mart)

2024- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **89,3** foiz.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-mart)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾


(yanvar-mart) **36,7**



■ Hajmi, mlrd so'mda

○ O'sishi (kamayishi)

Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

○ O'sishi

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-mart)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 22,7 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi
Jizzax shahri	22,9	+5,1%
Sharof Rashidov	9,8	+8,1%
G'allaorol	7,1	+8,1%
Zomin	5,3	+7,2%
Baxmal	4,1	+6,8%
Paxtakor	3,7	+7,3%
Forish	3,1	+6,2%
Do'stlik	3,1	+7,0%
Arnasoy	2,4	+5,2%
Mirzacho'l	2,4	+6,1%
Zarbdor	1,7	+5,8%
Zafarobod	1,3	+4,6%
Yangiobod	0,4	+6,2%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda O'sishi

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart, mln so'mda)



2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **16,6** mlrd so'mga oshib, **34,9** mlrd so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **91,6** foizni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: (72-221-51-27)

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

Yuridik xizmatlar hajmi fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.